XALQ DEPUTATLARI ARNASOY TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2026-yil 22-aprel VII-18-54-3-43-K/26 Arnasoy tumani

Arnasoy tumani bo‘yicha 2026-yil vegetatsiya davrida sug‘orish ishlari uchun ajratilgan suv limitini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-yanvardagi “Quyi bo‘g‘inda suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda suv resurslaridan foydalanish sarmaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5-sonli qaroriga hamda Respublika suv xo‘jaligi vazirligining 2024-yil 15-martdagi 72-sonli buyrug‘iga asosan Arnasoy tuman “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasi tomonidan har yili 1-aprelga qadar novegetatsiya davri uchun va 1-oktyabrga qadar kuz-qish davri uchun yakuniy iste’molchilar kesimida ekinlarni sug‘orish uchun suv olish limitlarini hududlar bo‘yicha tasdiqlangan limit doirasida ishlab chiqishi va tasdiqlash uchun xalq deputatlari tuman Kengashiga kiritilishi belgilangan.

Shuningdek tuman “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasi tomonidan 2026-yil vegetatsiya davrida sug‘orish ishlari uchun jami 163,4 mln m^3 suv limiti ajratilgan. Shundan Janubiy Mirzacho‘l magistral kanali va markaziy chap tarmog‘idan 72,1 mln m^3, LR-12 kanalidan 56,6 mln m^3, PR-12-4-kanalidan 31,7 mln m^3, zovur suvlaridan 3,0 mln m^3 suv limitlari ajratilib, sug‘orish uchun suv olish limitlarini hududlar bo‘yicha tasdiqlangan limit doirasida ishlab chiqilgan.

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-yanvardagi “Quyi bo‘g‘inda suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda suv

resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasi rahbari X.Eshonqulovning tuman bo‘yicha 2026-yil vegetatsiya davrida sug‘orish ishlari uchun ajratilgan suv limiti yuzasidan bergan taklifi ma’qullansin va ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasi (X.Eshonqulov)ga:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-yanvardagi PQ-5-sonli qarori asosida ishlarni tashkil etish;

- belgilangan limitlar asosida iste’molchilarga suv yetkazib berish;

- o‘ziga biriktirilgan hududda suvning hisobi va hisobotini yuritish;

- sug‘orish tarmoqlari va ulardagi gidrotexnik inshootlarni soz holatda saqlash, ta’mirlash-tiklash tadbirlarini amalga oshirish;

- suv olish joylarini suvni boshqarish va hisobga olish vositalari bilan jihozlash, suv monitoringi, hisobi va hisoboti yuritilishini raqamlashtirish;

- iste’molchilar kesimida iste’mol qilingan suv hajmi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni soliq organlariga taqdim etib borish;

- suv iste’molchilarining buyurtmanomasi asosida boshqa suv xo‘jaligi xizmatlarini ko‘rsatish;

- amalga oshirilgan ishlar yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobotlarni o‘z vaqtida berib borish vazifalari yuklatilsin.

4. Qaror rasmiy nashrlarda e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

5. Mazkur qaror “Arnasoy tongi” gazetasida rasman e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

6. Ushbu qaror qabul qilinishi munosabati bilan xalq deputatlari tuman Kengashining 2026-yil 18-martdagi VII-17-43-3-43-K/26-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari X.Suyarov hamda tuman Kengashining agrar, suv xo‘jaligi, ekologiya hamda sanoat, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi **BAYANASOV BOBIR OCHILOVICH**

Xalq deputatlari Arnasoy tumani
Kengashining
2026-yil 22-apreldagi
VII-18-54-3-43-K/26 -son qaroriga
1-ilova

T.r.	SIUlar va boshqa xo‘jaliklar nomi	Rejadagi suv miqdori	Oqim, mln m3	aprel			may			iyun			iyul			avgust			sentyabr		
				I	II	III	I	II	III	I	II	III	I	II	III	I	II	III	I	II	III
1	Bobojon Fayziyev	9,29	**7,0**	0,34	0,40	0,43	0,46	0,46	0,49	0,52	0,54	0,56	0,59	0,60	0,61	0,59	0,55	0,33	0,23	0,15	0,10
2	Hamdo‘stlik	8,67	**6,5**	0,31	0,37	0,40	0,43	0,43	0,46	0,48	0,51	0,52	0,55	0,56	0,57	0,55	0,51	0,31	0,22	0,14	0,09
3	Yo‘ldosh Zoxidov	11,63	**8,8**	0,42	0,50	0,54	0,57	0,58	0,61	0,65	0,68	0,70	0,74	0,76	0,76	0,73	0,68	0,42	0,29	0,18	0,13
4	Buxoro	33,43	**25,2**	1,21	1,44	1,56	1,64	1,66	1,76	1,86	1,95	2,02	2,13	2,17	2,18	2,11	1,97	1,20	0,83	0,53	0,36
5	Axad Soyipnazarov	13,23	**10,0**	0,48	0,57	0,62	0,65	0,66	0,70	0,74	0,77	0,80	0,84	0,86	0,86	0,83	0,78	0,48	0,33	0,21	0,14
6	Mustaqillik	13,00	**9,8**	0,47	0,56	0,61	0,64	0,64	0,68	0,72	0,76	0,78	0,83	0,84	0,85	0,82	0,76	0,47	0,32	0,20	0,14
7	Oltin Vodiy	10,28	**7,7**	0,37	0,44	0,48	0,51	0,51	0,54	0,57	0,60	0,62	0,66	0,67	0,67	0,65	0,61	0,37	0,26	0,16	0,11
8	Oqbuloq	12,04	**9,1**	0,44	0,52	0,56	0,59	0,60	0,63	0,67	0,70	0,73	0,77	0,78	0,79	0,76	0,71	0,43	0,30	0,19	0,13
9	Turkiston	6,61	**5,0**	0,24	0,29	0,31	0,33	0,33	0,35	0,37	0,39	0,40	0,42	0,43	0,43	0,42	0,39	0,24	0,16	0,10	0,07
10	Mirzo Ulug‘bek	13,95	**10,5**	0,51	0,60	0,65	0,69	0,69	0,73	0,78	0,82	0,84	0,89	0,91	0,91	0,88	0,82	0,50	0,35	0,22	0,15
11	Farg‘ona	23,83	**17,9**	0,86	1,03	1,11	1,17	1,18	1,25	1,33	1,39	1,44	1,52	1,55	1,56	1,50	1,40	0,86	0,59	0,38	0,26
12	Samarqand	22,57	**17,0**	0,82	0,97	1,05	1,11	1,12	1,19	1,26	1,32	1,36	1,44	1,47	1,47	1,42	1,33	0,81	0,56	0,36	0,25
13	Xorazm	19,75	**14,9**	0,72	0,85	0,92	0,97	0,98	1,04	1,10	1,15	1,19	1,26	1,28	1,29	1,24	1,16	0,71	0,49	0,31	0,21
Xo‘jalik chegarasida:		**198,3**	**149,2**	**7,2**	**8,6**	**9,2**	**9,7**	**9,8**	**10,4**	**11,0**	**11,6**	**12,0**	**12,6**	**12,9**	**13,0**	**12,5**	**11,7**	**7,1**	**4,9**	**3,1**	**2,2**
Tuman chegarasida:		**213,4**	**160,4**	**7,7**	**9,2**	**9,9**	**10,5**	**10,6**	**11,2**	**11,9**	**12,5**	**12,9**	**13,6**	**13,8**	**13,9**	**13,4**	**12,5**	**7,7**	**5,3**	**3,4**	**2,3**
Shu jumladan:																					
MCHT		**118,73**	**72,1**	**3,48**	**4,14**	**4,47**	**4,71**	**4,75**	**5,04**	**5,34**	**5,60**	**5,79**	**6,10**	**6,22**	**6,26**	**6,04**	**5,64**	**3,45**	**2,39**	**1,51**	**1,04**
LR-12		**59,80**	**56,6**	**2,73**	**3,25**	**3,51**	**3,70**	**3,73**	**3,96**	**4,19**	**4,40**	**4,55**	**4,80**	**4,89**	**4,92**	**4,74**	**4,43**	**2,71**	**1,87**	**1,19**	**0,82**
PR-12-4		**19,75**	**31,7**	**1,53**	**1,82**	**1,96**	**2,07**	**2,09**	**2,21**	**2,35**	**2,46**	**2,54**	**2,68**	**2,74**	**2,75**	**2,65**	**2,48**	**1,52**	**1,05**	**0,66**	**0,46**
Kommunal		**7,80**	**7,5**	**0,48**	**0,48**	**0,48**	**0,48**	**0,48**	**0,48**	**0,48**	**0,48**	**0,48**	**0,48**	**0,48**	**0,48**	**0,48**	**0,48**	**0,48**	**0,48**	**0,48**	**0,48**
Baliqchilik		**12,10**	**11,5**	**0,73**	**0,73**	**0,73**	**0,73**	**0,73**	**0,73**	**0,73**	**0,73**	**0,73**	**0,73**	**0,73**	**0,73**	**0,73**	**0,73**	**0,73**	**0,73**	**0,73**	**0,73**
Zovur suvlaridan																					
1	Buxoro	1,00	**1,4**										0,36	0,36	0,45	0,36					
2	Farg‘ona	0,30	**0,4**										0,11	0,11	0,14	0,11					

3	Mirzo Ulug‘bek	0,50	**0,7**										0,18	0,18	0,23	0,18				
4	Xorazm	0,40	**0,5**										0,14	0,14	0,18	0,14				
Jami zovur suvlari:		**2,20**	**3,0**										**0,8**	**0,8**	**1,0**	**0,8**				
Jami tuman bo‘yicha:			**163,4**	**7,7**	**9,2**	**9,9**	**10,5**	**10,6**	**11,2**	**11,9**	**12,5**	**12,9**	**14,4**	**14,6**	**14,9**	**14,2**	**12,5**	**7,7**	**5,3**	**3,4**	**2,3**

Arnasoy tumani bo‘yicha 2026-yil vegetatsiya davrida sug‘orish ishlari uchun ajratilgan suv limiti

m3/sek